O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 31-yanvar 55-11-0-Q/25 Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-455-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida"gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-455-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risidagi”gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-455-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

2025-yilda ikkinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan byudjet mablag‘larining cheklangan miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari prognozi 3-ilovaga muvofiq;

Foyda solig‘i to‘liqligicha O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetiga yo‘naltiriladigan yirik soliq to‘lovchilar ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq;

Rentabellik darajasidan kelib chiqqan holda foyda solig‘i 5-ilovaga muvofiq;

tumanlar va shaharlar byudjetlarining xarajatlar qismi yo‘nalishlari 6-ilovaga muvofiq;

Birinchi darajali byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarning 2025-2027-yillar uchun byudjet mablagʻlaridan foydalanish bilan bogʻliq maqsadli indikatorlari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining va Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga 8-ilovaga muvofiq oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilganligi;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining va Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlari 2025-yil 1-yanvardan 9-ilovaga muvofiq oʻz kuchini yoʻqotganligi;

tegishli mahalliy byudjetlarga daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismi toʻliq hajmda qoldiriladigan tegishli soliq turlari belgilanganligi;

2025-yilda ijtimoiy soliq tushumlarining boʻyicha 2024-yilda amal qilgan taqsimlash meʼyorlari saqlab qolinganligi;

Soliq qoʻmitasining maxsus jamgʻarmasiga noruda qurilish materiallaridan yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq tushumining 3 foizi yoʻnaltirilishi belgilanganligi;

2025-yildan boshlab, Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga hamda tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlariga davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tushgan mablagʻlar ularning qoʻshimcha manbalari hisoblanishi va 2025-yilda maqsadli ravishda “Kambagʻallikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish uchun yoʻnaltirilishi belgilab qoʻyilganligi;

davlat ishtirokidagi korxonalarga yetkazilgan zararni Davlat byudjetiga undirishda Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari sud va tergov jarayonida fuqaroviy daʼvogar sifatida ishtirok etishga rozilik berilganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari M.Ubaydullayev, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Roʻzaliyev), Fargʻona viloyati Davlat soliq boshqarmasi boshqarmasi (Mamatxanov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida va samarali bajarilishini taʼminlash choralarini koʻrsin.

4. Fargʻona viloyati Davlat soliq boshqarmasi (Mamatxanov) shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda 2025-yil uchun belgilangan Fargʻona viloyati mahalliy byudjeti daromadlari prognoz koʻrsatkichlarini 1-ilovaga muvofiq toʻliq bajarilishini taʼminlasin.

5. Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Roʻzaliyev) Gʻaznachilik xizmati boshqarmasi (Gʻoipov):

byudjetda koʻzda tutilgan xarajatlarni, shu jumladan, byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi toʻlovlarini oʻz vaqtida va toʻliq moliyalashtirilishini;

2025-yil uchun viloyat, shahar va tumanlar mahalliy byudjetlari aylanma kassa mablagʻlarining yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdorlarini 2-ilovaga muvofiq toʻliq saqlanishini taʼminlasin.

6. Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Roʻzaliyev), barcha tuman va shahar hokimliklari hamda hududiy byudjet mablagʻlari taqsimlovchilar **“tejamkorlik va barqarorlikni taʼminlash”** tamoyili asosida byudjet mablagʻlarini tejash va samaradorligini oshirish boʻyicha barcha zaruriy choralarni koʻrish;

byudjet tashkilotlari va byudjet mablagʻlari oluvchilarning xarajatlar smetalari hamda shtat jadvallarini, byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarning jamlanma xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini tasdiqlash joriy moliya yilining 20-yanvaridan kechiktirmay hamda belgilangan tartibda iqtisodiyot va moliya organlarida roʻyxatdan oʻtkazish joriy yil 25-yanvargacha amalga oshirilishini;

byudjet tashkilotlarining va byudjet mablagʻlari oluvchilarning vaqtinchalik xarajatlar smetalari yanvar oyi uchun tuzilishini;

davlat maqsadli jamgʻarmalari, belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamgʻarmalar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamgʻarmalarining daromadlar va xarajatlar smetalari hamda shtat jadvallari joriy moliya yilining 20-yanvaridan kechiktirmay hamda iqtisodiyot va moliya organlarida joriy yil 25-yanvargacha belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtkazilishini taʼminlasin.

Shuningdek, byudjet xarajatlari parametrlarini shakllantirishda ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar, oziq-ovqat mahsulotlari va doridarmon vositalarini sotib olish, shuningdek, kommunal xizmatlar xarajatlaridan mablagʻlar yetishmovchiligiga yoʻl qoʻyilishini;

mahalliy byudjet va uning qoʻshimcha manbalari hisobidan normativhuquqiy asosi boʻlmagan qoʻshimcha shtat birliklari saqlanishini;

moliyalashtirish manbai aniq boʻlmagan tadbirlarni amalga oshirilishini oldinini olish vazifasi yuklatilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni oʻz zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2025-yil 31-yanvardagi
55-11-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona viloyatining viloyat mahalliy byudjetining daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
	JAMI	**6 027 551 500,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	511 029 000,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	285 784 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 659 890 000,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	47 634 000,0
5	Aksiz solig‘i jami	605 742 500,0
	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*39 697 500,0*
	Byenzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*566 045 000,0*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	280 701 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	250 687 000,0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	383 808 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	348 812 000,0
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	34 127 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	99 853 000,0
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	1 487 000,0
13	Davlat boji	225 653 000,0
14	Yig‘imlar	114 964 000,0
15	Jarimalar	170 574 000,0

16	Davlat mulki boʻyicha ijara toʻlovlari	6 806 000,0

Farg‘ona viloyat hokimining
2025-yil 31-yanvardagi
55-11-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

2025-yilda viloyat, shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarida aylanma kassa mablagʻlarining yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdori

ming soʻmda

T/r	Hudud nomi	Miqdori
x	**JAMI**	**30 000 000,0**
x	*shundan*	
1	Viloyat byudjeti	12 200 000,0
2	Fargʻona shahar	2 485 000,0
3	Qoʻqon shahar	2 063 000,0
4	Quvasoy shahar	770 000,0
5	Margilon shahar	1 562 000,0
6	Oltiariq tumani	913 000,0
7	Bogʻdod tumani	809 000,0
8	Buvayda tumani	739 000,0
9	Beshariq tumani	779 000,0
10	Quva tumani	1 018 000,0
11	Uchkoʻprik tumani	755 000,0
12	Rishton tumani	799 000,0
13	Soʻx tumani	243 000,0
14	Toshloq tumani	822 000,0
15	Oʻzbekiston tumani	787 000,0
16	Fargʻona tumani	851 000,0
17	Dangʻara tumani	715 000,0
18	Furqat tumani	462 000,0
19	Yozyovon tumani	471 000,0
20	Qoʻshtepa tumani	757 000,0